



**TOSHKENT VILOYATINING  
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
*(2019 yil yanvar-may)*

Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 6711,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,3 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 650,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 3,3%), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 5416,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 646,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,0 %) tashkil etdi.


**Shahar va tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi  
(mlrd. so'm)**


2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Chirchiq shahri, Bekobod, Qibray va Chinoz tumanlarida qayd etildi.

## Jami viloyat Chakana savdo aylanmasida shahar va tumanlarning ulushi, (%)



## Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,3 %ga o'sdi va 650,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 9,7 % ulushiga to'g'ri keladi.


Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 5416,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-may oylariga nisbatan 2,9 %ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 78,8 %ga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)

2018 yil  
yanvar-may




2019 yil  
yanvar-may



■ Yirik korxonalar  
■ Kichik tadbirkorlik

**Chakana savdo aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**




Tahliliy natijalarga ko`ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo`yicha Nurafshon shahri (90,7 %), Oqqo`rg`on tumani (94,2 %), Yangiyo`l shahri (89,1 %), Bostonliq tumani (88,3%), Parkent tumani (88,2%), Yangiyo`l tumani (90,7 %) va Ohangaron tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 9,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Chinoz tumani (32,2 %), Bekobod shahri (22,4 %), Toshkent tumani (18,4 %), O`rtachirchiq tumani (14,7 %), Yuqorichirchiq tumani (13,8 %), Qibray tumani (8,5 %), Chirchiq shahri (12,6 %), Ohangaron shahri (17,1 %) tumanlarida kuzatilgan.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining  
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**


	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>650 010,2</b>	<b>107,8</b>	<b>6 061 746,5</b>	<b>102,8</b>
<b>Nurafshon sh.</b>	504,1	134,5	179 120,6	102,6
<b>Olmaliq sh.</b>	83 004,6	157,2	535 464,4	99,5
<b>Angren sh.</b>	21 736,9	122,7	337 211,6	101,7
<b>Bekobod sh.</b>	84 039,2	200,6	291 066,0	90,8
<b>Ohangaron sh.</b>	21 558,6	96,2	104 682,9	103,2
<b>Chirchiq sh.</b>	46 638,5	122,5	322 122,5	104,1
<b>Yangiyo`l sh.</b>	11 725,8	87,6	333 193,2	101,4
<i>tumanlar:</i>				
<b>Oqqo`rg`on</b>	3 737,8	80,3	257 135,7	101,5
<b>Ohangaron</b>	3 853,8	216,9	103 822,9	105,8
<b>Bekobod</b>	9 946,6	424,9	156 330,0	101,5
<b>Bo`stonliq</b>	16 262,7	72,2	285 891,7	104,5
<b>Bo`ka</b>	8 405,9	90,9	207 952,9	101,9
<b>Quyichirchiq</b>	1 927,5	99,8	120 885,6	104,1
<b>Zangiota</b>	40 897,4	96,1	828 816,0	104,2
<b>Yuqorichirchiq</b>	36 839,2	51,7	230 073,2	124,9
<b>Qibray</b>	42 571,9	70,8	456 951,7	112,6
<b>Parkent</b>	11 272,1	131,2	245 866,4	101,8
<b>Piskent</b>	5 943,8	104,2	141 993,7	102,1
<b>O`rtachirchiq</b>	18 228,1	89,8	106 100,4	101,8
<b>Chinoz</b>	97 008,9	121,8	204 708,5	99,9
<b>Yangiyo`l</b>	12 946,1	133,7	297 037,1	100,4
<b>Toshkent</b>	70 960,5	98,9	315 319,3	100,7

**Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**


2019 yil yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 2312,1 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 1,9%ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-may oylarida o`tgan yilga nisbatan viloyatning deyarli barcha hududlarida o`shish ko`rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko`rsatkichlar Yangiyo`l shahri (577,5 ming.so`m), Zangiota tumani (4457,8 ming. so`m) va Olmaliq shahri (4783,2 ming.so`m) hissasiga to`g`ri keladi.

**Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi**

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>2312,2</b>	<b>101,9</b>
Nurafshon sh.	3 718,9	101,5
Olmalik sh.	4 783,2	103,1
Angren sh.	1 928,8	101,5
Bekobod sh.	3 973,6	103,0
Ohangaron sh.	3 411,9	102,6
Chirchiq sh.	2 365,4	105,3
Yangiyo`l sh.	5 777,5	100,2
<b>tumanlar:</b>		
Oqqo`rg`on	2 520,5	99,8
Ohangaron	1 140,6	101,6
Bekobod	1 072,1	104,6
Bo`stonliq	1 805,0	101,1
Bo`ka	1 746,2	99,5
Quyichirchiq	1 154,3	102,1
Zangiota	4 457,8	102,6
Yuqorichirchiq	2 003,8	102,3
Qibray	2 524,1	104,7
Parkent	1 688,4	101,0
Piskent	1 488,3	100,8
O`rtachirchiq	845,8	98,3
Chinoz	2 290,9	104,7
Yangiyo`l	1 498,2	100,0
Toshkent	2 171,3	99,2



Jumladan, 2019 yilning yanvar-may oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,8 %ni tashkil etib, 188,7 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 5,7 % oshgan. Bunda jami savdo aylanmasining 78,1 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.




**TOSHKENT VILOYATINING  
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**
*(2019 yil yanvar-may)*

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 2836,8 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 0,5 %ga kamaydi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm yirik korxonalariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, 1540,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,4 %ga kamaydi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 54,3 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkichni tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, Yuqorichirchiq tumanida (120,9%), Bekobod tumani (106,8%), Parkent (106,1%) tumanlarida va Yangiyo'l shahrida (106,0) yuqori bo'lgan.

**Yirik va kichik korxonalarining  
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida kichik tadbirkorlik sub'ektlari aylanmasining ulushi 45,7% ni tashkil etdi, kichik korxonalarining ulushi katta bo'lgan Ohangaron shahar (100,0%), Angren (99,9%) shahrida va Yangiyo'l (99,9%) tumanida kuzatildi.

**Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi**

	Jami (mlrd.so`m)	O`tgani yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgani yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgani yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>2836,8</b>	<b>99,4</b>	<b>1540,8</b>	<b>96,5</b>	<b>1296,0</b>	<b>103,2</b>
Nurafshon sh.	14,5	102,1	0,0	80,5	14,4	102,1
Olmaliq sh.	59,6	97,5	11,7	80,8	47,9	102,7
Angren sh.	21,7	102,8	0,0	18,6	21,7	103,4
Bekobod sh.	30,4	101,4	0,1	15,7	30,3	103,6
Ohangaron sh.	18,9	102,6	0,0		18,9	102,6
Chirchiq sh.	60,0	104,6	3,3	103,5	56,7	104,7
Yangiyo`l sh.	81,1	106,0	0,4	660,0	80,7	105,5
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo`rg`on	2,6	98,0	0,0	6,0	2,6	101,5
Ohangaron	18,6	102,4	0,2	70,7	18,4	102,8
Bekobod	31,8	106,8	22,4	110,3	9,4	99,0
Bo`stonliq	31,0	88,4	0,2	3,2	30,8	102,2
Bo`ka	14,2	101,9	0,0	71,2	14,1	102,0
Quyichirchiq	11,2	101,5	0,1	82,7	11,0	101,7
Zangiota	303,0	102,5	0,8	36,0	302,2	103,0
Yuqorichirchiq	58,1	120,9	9,7	1 271,5	48,4	102,4
Qibray	626,6	90,6	499,5	87,7	127,1	104,0
Parkent	46,5	106,1	0,8	775,6	45,8	104,6
Piskent	16,1	100,8	0,0	14,2	16,0	101,8
O`rtachirchiq	797,0	101,2	783,2	101,1	13,8	102,0
Chinoz	223,8	102,8	199,2	102,9	24,6	101,7
Yangiyo`l	79,2	105,7	0,1	46,5	79,1	105,9
Toshkent	291,1	102,0	9,1	88,8	281,9	102,5

## Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'ati Chinoz (88,4 %) tumanida qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel.:71-230-86-59